ISNN 3030-3907

2026
JUNE
ISSUE - 6
VOLUME -5

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

IYUN 2026
Issue - 6, VOLUME – 5

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

POSTMODERN JAMIYAT TALQINIDA JAN BODRIARNING FALSAFIY QARASHLARI

Azimova Madinabonu Adiljon qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktaranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Jan Bodriarning postmodern jamiyat haqidagi falsafiy qarashlari tahlil qilinadi. Muallif postmodernizm sharoitida simulyatsiya, simulyakr va giperreallik tushunchalarining jamiyat hayotidagi o‘rni hamda ommaviy axborot vositalari, iste’mol madaniyati va virtual makonning inson ongiga ta’sirini yoritadi. Shuningdek, zamonaviy jamiyatda reallik va sun’iy obrazlar o‘rtasidagi munosabat Bodriar falsafasi asosida ilmiy jihatdan tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: falsafa, postmodernizm, giperreallik, simulyatsiya, simulyakr, iste’mol jamiyati, ommaviy madaniyat, media, virtual reallik.

Аннотация. В данной статье анализируются философские взгляды Jean Baudrillarda на постмодернистское общество. Автор рассматривает роль понятий симуляции, симулякра и гиперреальности в условиях постмодернизма, а также освещает влияние средств массовой информации, культуры потребления и виртуального пространства на сознание человека. Кроме того, в статье с научной точки зрения анализируются отношения между реальностью и искусственными образами в современном обществе на основе философии Бодрийяра.

Ключевые слова: философия, постмодернизм, гиперреальность, симуляция, симулякр, общество потребления, массовая культура, медиа, виртуальная реальность.

Abstract. This article analyzes the philosophical views of Jean Baudrillard on postmodern society. The author examines the role of the concepts of simulation, simulacra, and hyperreality in the context of postmodernism, as well as the influence of mass media, consumer culture, and virtual space on human consciousness. In addition, the relationship between reality and artificial images in modern society is scientifically analyzed on the basis of Baudrillard’s philosophy.

Keywords: philosophy, postmodernism, hyperreality, simulation, simulacra, consumer society, mass culture, media, virtual reality.

KIRISH.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib G‘arb falsafasi va madaniy hayotida jiddiy o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr insoniyat ongida chuqur iz qoldirdi. Ilm-fan va texnologiya misli̇z taraqqiy etganiga qaramay, jamiyatda ma’naviy bo‘shliq, begonalashuv va qadriyatlarga nisbatan ishonchsizlik kuchaydi. Ilgari inson tafakkurida muhim o‘rin egallagan “mutlaq haqiqat”, “taraqqiyot”, “ideal jamiyat” kabi tushunchalar asta-sekin o‘z

ISSN 3030-3907

ahamiyatini yo‘qota boshladi. Shu tariqa modernizmning qat’iy va universal qarashlariga qarshi yangi falsafiy yo‘nalish — postmodernizm shakllandi.

Postmodernizm eng avvalo yagona haqiqat tushunchasini inkor qilishi bilan xarakterlanadi. Agar modernizm inson aqli yordamida dunyoni tartibga solish va mukammal jamiyat qurish mumkin deb hisoblagan bo‘lsa, postmodernizm bunday qarashlarga ehtiyotkorlik va shubha bilan yondashadi. Fransuz faylasufi Jan Fransua Lyotar postmodernizmni “katta g‘oyalar va umumiy haqiqatlarga ishonchsizlik”deb ta’riflagan edi. Ya’ni insoniyatni yagona g‘oya yoki umumiy haqiqat asosida tushuntirishga bo‘lgan urinishlar endilikda ishonchli emas deb qarala boshlandi.

Postmodernizmning shakllanishida poststrukturalizm oqimi ham muhim o‘rin egallaydi. Ushbu oqim vakillari til, matn va ma’no masalasiga yangicha yondashdilar. Ayniqsa, Jak Derridaning dekonstruktsiya nazariyasi mavjud tushunchalar va matnlarning ichki ziddiyatlarini ochib berishga qaratilgan edi. Derridaning fikricha, har qanday matn yagona ma’noga ega emas, aksincha, turli talqinlarga ochiqdir. Shu bilan birga, Mishel Fuko hokimiyat va bilim o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilgan bo‘lsa, Jan Bodriar zamonaviy jamiyatdagi media, iste’mol va virtual reallik masalalariga alohida e’tibor qaratdi.

Modernizm va postmodernizm o‘rtasidagi asosiy farq ularning haqiqat va taraqqiyotga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi. Modernizm XVIII–XIX asr ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liq edi. Bu davrda inson aqli va ilm-fan yordamida barcha muammolarni hal qilish mumkin degan ishonch mavjud bo‘lgan. Jamiyatni ilmiy asosda boshqarish va taraqqiyotga erishish modernistik tafakkurning asosiy maqsadi hisoblangan.

Postmodernizm esa bunday qat’iy qarashlarni tanqid qiladi. Unga ko‘ra, insoniyat taraqqiyoti doimo erkinlik yoki baxtga olib kelmaydi. Aksincha, texnologiyalar va ommaviy madaniyat rivojlangan sari inson sun’iy obrazlar ichida yashay boshlaydi. Shu sababli postmodernizm noaniqlik, parchalanganlik va ko‘p ma’nolilikni ilgari suradi. Bu borada Bodriarning qarashlari alohida ahamiyatga ega. U zamonaviy jamiyatni “iste’mol jamiyati” sifatida tavsiflaydi. Faylasufning ta’kidlashicha, bugungi inson mahsulotni ehtiyoj uchun emas, balki uning ramziy ma’nosi uchun xarid qiladi. Masalan, qimmat avtomobil yoki telefon oddiy buyum emas, balki insonning ijtimoiy mavqei va obro‘sini ifodalovchi belgiga aylanadi.

Bodriar bu haqida shunday yozadi: “Iste’mol buyumlarning emas, belgilar va ramzlarning iste’molidir”. Ushbu fikr orqali faylasuf zamonaviy jamiyatda inson ko‘pincha narsaning amaliy foydasidan ko‘ra uning tashqi ko‘rinishi va ijtimoiy ahamiyatiga ko‘proq e’tibor berayotganini ko‘rsatadi. Jan Bodriarning eng mashhur falsafiy tushunchalaridan biri simulyatsiya nazariyasidir. Ushbu nazariyaga ko‘ra, postmodern jamiyatda reallik asta-sekin o‘z o‘rnini

ISSN 3030-3907

simulyatsiyaga bo‘shatib bermoqda. Inson real hayot bilan emas, balki shu hayotning sun’iy nusxalari bilan yashay boshlaydi.

Bodriar o‘zining “Simulyakrlar va simulyatsiya” asarida shunday yozadi: “Simulyatsiya haqiqatni yashirmaydi, aksincha haqiqatning yo‘qligini yashiradi”. Ushbu fikr orqali faylasuf zamonaviy jamiyatda “asl haqiqat” tushunchasi tobora mavhumlashib borayotganini anglatadi. Simulyakr tushunchasi esa asl nusxaga ega bo‘lmagan obrazni bildiradi. Masalan, reklamalarda namoyish qilinadigan “ideal hayot” yoki “mukammal inson” real hayotda mavjud bo‘lmasligi mumkin, biroq inson ongiga juda kuchli ta’sir qiladi. Natijada odamlar sun’iy obrazlarni haqiqiy hayotdan ustun qo‘ya boshlaydi. Bodriar ushbu holatni giperreallik deb ataydi. Giperreallik — bu sun’iy ravishda yaratilgan voqelikning real hayotdan ham kuchliroq ta’sir ko‘rsatishidir. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar ushbu tushunchaning yaqqol namunasiga aylangan. Insonlar ko‘pincha o‘z hayotining mazmunidan ko‘ra, uning internetdagi ko‘rinishi haqida ko‘proq qayg‘uradi.

Masalan, ayrim insonlar sayohatdan zavqlanish uchun emas, balki surat va videolarni ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish uchun safarga chiqayotgandek taassurot uyg‘otadi. Bu esa reallik va uning virtual tasviri o‘rtasidagi chegara tobora yo‘qolib borayotganini anglatadi. Bodriar zamonaviy ommaviy axborot vositalarini ham keskin tanqid qiladi. Uning fikricha, media endilikda voqelikni aks ettiruvchi vosita emas, balki uni yaratuvchi kuchga aylangan. Televideniye, reklama va internet inson tafakkuriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Faylasuf shunday yozadi: “Biz axborot ko‘paygan sari ma’no yo‘qolayotgan davrda yashayapmiz”. Haqiqatan ham, bugungi inson turli axborotlar oqimi ichida yashaydi, biroq bu axborotlarning ko‘pligi har doim ham chuqur anglashni anglatmaydi. Aksincha, ortiqcha axborot insonni fikrlashdan uzoqlashtirib, uni tayyor obrazlar va stereotiplarni qabul qilishga o‘rgatadi.

Bodriar nazarida ommaviy madaniyat inson tafakkurini standartlashtiradi. Odamlar mustaqil fikr yuritishdan ko‘ra ommaviy trend va virtual obrazlarga ergashishni afzal ko‘ra boshlaydi. Aynan shu jihat postmodern jamiyatning asosiy muammolaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Postmodernizmning muhim tamoyillaridan biri dekonstruktsiyadir. Dekonstruktsiya mavjud tizimlar, matnlar va tushunchalarning ichki ziddiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Derrida ushbu usul orqali “mutlaq haqiqat” tushunchasi barqaror emasligini ko‘rsatishga harakat qilgan. Bodriar esa dekonstruktsiyani media va iste’mol madaniyatiga nisbatan qo‘llaydi. Uning fikricha, reklama, siyosat va ommaviy axborot vositalari insonni sun’iy haqiqat ichida yashashga majbur qilmoqda. Natijada inson reallikni to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki ekranlar va belgilar orqali qabul qiladigan bo‘lib qolmoqda. Bodriarning qarashlari ayniqsa bugungi raqamli davr uchun juda dolzarbdir.

ISSN 3030-3907

Chunki hozirgi insonning kundalik hayoti internet, ijtimoiy tarmoqlar va virtual makon bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Ba’zan inson real hayotdagi voqelikdan ko‘ra virtual olamdagi obrazlar bilan ko‘proq yashayotgandek tuyuladi.

XULOSA. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Jan Bodriarning postmodern jamiyat haqidagi falsafiy qarashlari zamonaviy dunyoning murakkab mohiyatini ochib beradi. Uning simulyatsiya, simulyakr va giperreallik haqidagi nazariyalari bugungi axborotlashgan jamiyatni tushunishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bodriar insonning real hayotdan belgilar va sun’iy obrazlar dunyosiga o‘tib borayotganini chuqur tahlil qiladi. Ayniqsa, internet va ommaviy media hukmronlik qilayotgan hozirgi davrda uning qarashlari yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, postmodernizm va dekonstruktsiya nazariyalari inson tafakkurining erkinlashuvi va mavjud stereotiplarga tanqidiy yondashuv shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Shu sababli Jan Bodriar falsafasi zamonaviy falsafiy tafakkurning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Baudrillard J. Simulacra and Simulation. — Michigan: University of Michigan Press, 1994.
2. Baudrillard J. The Consumer Society. — London: Sage Publications, 1998.
3. Lyotard J.-F. The Postmodern Condition. — Minneapolis: University of Minnesota Press, 1984.
4. Derrida J. Of Grammatology. — Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1976
5. Foucault M. Discipline and Punish. — New York: Vintage Books, 1995.
6. Ильин И.П. Постмодернизм: словарь терминов. — Москва: Интрада, 2001.

ISSN 3030-3907